

## AVLONIY IJODIDA NAVOIY AN'ANALARI

*Axrorova Mahina Avazovna*

*Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi.*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada Jadid adabiyoti vakili Abdulla Avloniy Alisher Navoiy asarlarini puxta o'rgangani, u o'z asarlarida Navoiyga ergashgani, uning an'analarin g'oyaviy davom etgani. Maqolada har ikki ijodkor asarlardan parchalar keltirilib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: Jadid, mumtoz adabiyoti, o'zbek dramaturgi, Amir Temur Korogon, Hayrat-ul-abror.*

## NAVOI TRADITIONS IN AVLONI CREATIVITY

*Akhrorova Makhina Avazovna*

*Sharof Rashidova is a teacher at the Faculty of Preschool and Primary Education at Samarkand State University*

*Annotation: In this article, the representative of Jadid literature, Abdulla Avloni, carefully studied the works of Alisher Navoi, who wrote a lot about loyalty to the country in his works.*

*Keywords: Jadid, classical literature, Uzbek dramatist, Amir Temur Korogon, Hayrat-ul-abror*

## НАВОИЙСКИЕ ТРАДИЦИИ В ТВОРЧЕСТВЕ АВЛОНИ

*Ахророва Махина Авазовна*

*Шароф Рашидова – преподаватель факультета дошкольного и начального образования Самаркандского государственного университета.*

*Аннотация: В данной статье представитель джадидской литературы Абдулла Авлони внимательно изучил творчество Алишера Навои, который в своих произведениях много писал о верности стране.*

*Ключевые слова: Джадид, классическая литература, узбекский драматург, Амир Темур Корогон, Хайрат-уль-Аброк.*

An'ana bu ma'lum bir ijodkor ijodini chuqur o'rganib unga xos ijobiy xislatlarini o'zida mujassam qilib, yangicha ruh berib, davom ettirish hisoblanadi. An'ana asrdan-asrga, davrdan-davrga o'tib kelayotgan tajriba. Ya'ni asardagi obrazlar, uning ruhiyati, qarashlari va tasvir etish vositalari hisoblanadi. Adabiyotning etuk vakillari ijodini o'rganib, uning g'oyaviy-badiiy jihatlarini yangi avlod vakillari qayta boyitib, o'z o'quvchilariga etkazadi. Buyuk adabiyot vakillarining barhayot asarlari bir necha yillar davomida o'rganilib, boyitib boriladi. Jadid adabiyoti vakillari asosan, novatorligi ya'ni yangilik kashf qilgani, bilan boshqa davr adabiyoti vakillaridan farq qiladi. Bu davr adabiyot vakillarini shunday ta'riflasak bo'ladi: Mumtoz adabiyot namunalarini o'zida mujassamlashtirib, yangilikni tushunishga qodir ijodkorlar-bu jadidlardir. Shulardan biri bo'lgan Abdulla Avloniyning boy adabiy me'rosi ham mumtoz adabiyotimizning zaminida shakllangan.

Jadid adabiyoti vakillaridan biri Abdulla Avloniy ham o'z asarlarida Navoiyga ergashgan, o'z asarlarida Navoiy an'analarini g'oyaviy jihatdan davom ettirgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek dramaturgiyasi va teatrining, yangicha maorifi va matbuotining asoschilaridan. "Hijron" taxallusi bilan she'rlar bitgan, bir qator yangicha darsliklar yozgan. Noshir, tarjimon, elchi, muallim. Serqirra ijodining barcha namuanlari xalqni yuksak va ezgu amallarga chorlovchi g'oyalar bilan yo'g'rilgan[1] ijodkor Abdulla Avloniy Navoiy asarlarini puxta o'rgangan, ularning har birini mag'zini chaqqan. Biz mana shu natijalarni Avloniy asarlarida ko'rishimiz mumkin. Avloniy hikoyalardan Navoiyning ruhi ufurib turadi. Uning qarashlari, g'oyalarini jaded adabiyoti vakili Abdulla Avloniy davom ettirgandek go'yo.

Abdulla Avloniyning "Birinchii muallim" kitobida To'g'rilik haqida quyidagi hikoyat keltirilgan:

Bir kampirning uyida bir tup balx tuti bor edi. U daraxt nihoyatda to'g'ri o'sgan edi. Bechora kampirning shu tutdan boshqa hech narsasi yo'q edi. O'sha tut orqasidan kun o'tkazar edi. Bir kuni ul shaharning podshohi bir ayvon solmoqchi bo'lub, ustun axtarganda, kampirning tuti to'g'ri keladi. Podshoh tutni ming oltinga sotub oldi. Bechora kampir boy xotin bo'ldi. Bir kuni tutini ko'rgali bordi. Ko'rdiki, tuti Jannat kabi bir ayvon o'rtasida turibdur. Kampir tutiga qarab dedi:

Ey tutim, to'g'riliging qildi bizi davlatg'a yor,

Egri bo'lsang, san o'tun bo'lg'ay eding, man xor-zor.

To'g'rilar jannatning ayvonidadur,  
O'g'rilar ranjualam koninidadur[1].

Alisher Navoiy ham "Hayrat ul-abror" dostonida har bir inson o'ziga to'g'rilikni odat qilmog'i haqida so'z yuritarkan, turli narsa va hodisalarning, kundalik turmushda ishlatiladigan juda ko'p buyum va jihozlarning to'g'ri va egri xususiyatlarini solishtiradi. Masalan, biron manzilga bormoqchi bo'lsangiz, o'sha erga eltuvchi to'g'ri yo'l bo'lsa-yu, siz aylanma yo'ldan yursangiz, albatta manzilga kechroq etasiz. Sham o'zi to'g'ri bo'lgani holda, uni tikka qo'yib yondirasiz. Atrofga shu'la sochib, kishilarga uzoq vaqt yorug'lik beradi. Shuning uchun ham u kerakli narsa sifatida e'zozlanadi, ehtiyot qilinadi. Shu'laga intilgan parvona - maydagina kapalak uning atrofida aylanib, egri harakatlar qilgani uchun o'sha shu'laga urilib yonib ketadi. Sarvning qomati to'g'ri bo'lgani uchun xazon kulfatidan ofat ko'rmay, doim ko'm-ko'k. Bog'dagi toza sunbul har narsaga chirmashib o'sgani uchun egrilik uning yuzini qora qildi[2].

Yuqoridagi misollardan ko'rishimiz mumkin, Avloniy ham Navoiy kabi to'g'ri bo'lgan inson hamma vaqt baland martabalarga erishishi mumkinligini, uni parvarishlagan ota-onasiga ham rahmat olib kelishi mumkinligini ta'riflagan. To'g'rilikni ta'riflash bobida Navoiyga ergashgan, uning an'anasini davom ettirgan. Xuddi mana shunga o'xshagan misollarni biz "Ikkinchi muallim" kitobida ham ko'rishimiz mumkin. Bu kitobda ham Navoiy "Hayrat ul-abror"da keltirilgan ikki do'st hikoyatiga o'xshash hikoyani uchratishimiz mumkin:

Chin do'st  
Ikki odam bir-biriga do'st bo'ldilar chunon,  
Bir nafas ayrilmas erdi bir-biridan ikki jon.  
Maslahat birla safar qilmoqni aylab ixtiyor,  
Bo'ldilar sahro tamoshosi uchun bir kun ravon.

Yo'lda bir daryodan o'tmak to'g'ri keldi do'stlara,  
O'turub bir kemaga ketmog'da erdilar hamon.  
Bir zamon to'lqun kelub ul kemani qildi xarob,  
Ul iki o'rtog' yiqildilar suv uzra nogahon.

Suv yuzinda ul zamon ketmakda erdilar oqib,  
Suvchilar keldilar ushlab olg'ali suvdan amon.  
Ul iki do'stning birini tutsa, suvchig'a dedi:  
Qo'y mani, avval borub, do'stumni qutqar beziyon.

Suvchi borub ushlasa o'rtog'ini,  
Ul ham aylar do'st qutulsun deb fig'on.  
Ko'rdingizmi, ey suchuk o'g'lonlarim,  
Do'stlig'dan bu siza bir doston.

Avloniy qalamiga mansub "Chin do'st" hikoyasida ikki do'st bir-birini juda qadrlashini, hatto, cho'kayotgan paytda ham o'z jonini qutqarishdan oldin, do'stini "beziyon" qutqarishini aytgan. Xuddi mana shu hikoyani yozishda Abdulla Avloniy Alisher Navoiy an'anasini davom ettirgan. Har ikki hikoyatda do'stga muhabbat, sadoqatning eng yuqori pog'onalari aks ettirilgan. Do'stlik kabi buyuk tushuncha davr, vaqt tanlamasligini shu ikki hikoyadan ham anglashimiz mumkin. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostoning sakkizinchi maqolotida "Ikki vafoliq yor xususida" hikoyatini keltiradi. Unda to'rt ulus xoni Amir Temur Ko'ragon iqlimlarni bosib olar ekan, Hindiston uchun juda qattiq janglar bo'ldi. Yovlar kofir bo'lib, shahanshoh ularning barchasini qirib tashlashni buyuradilar. Har bir askar o'z xohishicha bosh kesishga kirishadi. Boshlar sellardagi toshlar kabi hamma joyni to'ldiradi. Shu mahal ikki do'st qotillarga duch keladi. Sipoh ulardan birini boshini kesayotganda, ikkinchisi "Senga bosh kerak bo'lsa, uning boshiga tegmay, mening boshimni kesa qol!" deb iltijo qila boshlaydi. Sipoh oldingi hindini qoldirib, keyingisini o'ldiray deb tig' ko'targanda, o'rtog'i qotil oyog'iga bosh qo'yib o'zini o'ldirishni tilardi. Ikki do'st o'z boshlarini oldin kestirish uchun bir-birlari bilan talashishardi. Shu hol davom etar ekan, el orasida "al-omon" ya'ni "o'ldirishni to'xtatib, qolganlarni omon qoldiringlar", degan e'lon eshutiladi.

Ey Navoiy, xudo senga shunday yor bersa,  
Sen ham unga boshing bilan joningni fido qilgin[3].

Navoiy o'z asarlarida do'stga sadoqatni mana shunday tarannum qiladi, ya'ni do'stga sadoqatli do'st o'z jonidan ko'ra do'stini ustun qo'yadi, Avloniy asarida ta'riflangan do'st ham xuddi shunday qutqarish kelganda,

birinchi o'z jonini emas, do'stini jonini qutqarish kerakligini aytishadi. Shunday qiyin vaziyatda ham u obrazlar do'stlarini qutqarishni xohlashadi.

Hazrat Mir Alisher Navoiy o'zining betakror ijodida do'stlik tushunchasiga alohida urg'u berganlar. "Xamsa" dostonining to'rtinchi dostoni bo'lmish "Sab' ai sayyor" dostonida ham do'stlik tushunchasi, do'stga sadoqatli bo'lish, o'ziga ravo ko'rganini do'stiga ham ravo ko'rish tuyg'ulari hikoyatlar zamirida yoritilib bergan. Dostonda shoh Bahromga aytilgan birinchi hikoyat, ya'ni hindistonlik musofir tomonidan qora qasrda hikoya qilingan Farrux va Axiy hikoyatini olib ko'raylik. Shaxzoda Farrux tushida ko'rgan mahvashni axtarib Halabga kelishi, uni bir bor uchratib, hushidan ayrilishi, saxovati bilan nom qozongan Axiyning g'am-anduhga cho'mib, qora palosga o'ranib iztirob chekayotgan Farruxni uchratib qolishi, uni uyiga taklif qilib mulozamat ko'rsatishi, u bilan suhbat qurib uning dardidan voqif bo'lib, Farruxning ishq tushgan go'zal o'z yori ekanligini bilib, sevgan yorini taloq qilib, do'sti Farruxga nikohlab berishi do'stlikning, oliyanoblikning eng yuqori bosqichidir. Bu do'stlik xuddi Avloniyning Chin do'st hikoyatidek, javobli do'stlik edi. Farrux nikohiga olgan go'zal yorning g'am-anduhga botib nola qilishidan bor gapni bilib oladi va Axiyning mardligiga hayratga tushadi. Ayolni o'ziga singil kabi tutadi va do'stini izlaydi. Axiy ham ishi yurishmay, Hindistonga borib qoladi. U erda ikki do'st topishadi. Farrux singlim deya Axiyning ayolini to'y-tomosh qilib o'ziga nikohlab beradi shu tariqa ularning do'stligi abadiy bo'lib, bir-birlari qo'llab-quvvatlab baxtli hayot kechiradilar[4].

Alisher Navoiy yolg'on do'st haqida ham hikoyat yozadi, unda yolg'on do'stlarni ko'rsatib, bularni do'stligi haqiqiy do'stlikdan uzoqligini aytadi. Xususan, Sab' ai Sayyor dostonida shoh Bahrom payshanba kuni sandal qasrda Muqbil va Mudbil hikoyatini Buxtardan Xovarga yo'l olgan sayohatchilardan eshitadi. Yo'lovchilar Bahromga quyidagi hikoyatini aytib beradilar: Muqbil va Mudbir do'st tutinadi. Mudbirning axmoqona gaplaridan Muqbil ko'p ozor chekar edi. Ular safarga chiqadilar. Dengizga kemaga chiqishadi, to'fon sabab kema g'arq bo'ladi. Ikkisi omon qoladi, quruqlikka chiqqach daraxt kovagidan chiqayotgan suv bo'ladi, unda suvni ichgan odam yolg'on gapirsa, yorilib o'lishi haqida yozilgan bo'ladi. Uni ikki do'st ham ichishadi. Keyin ular kemada suzib, qirg'oqqa borganlarida, Xovar shohiga duch keladilar. Mudbir o'zini savdogar do'stini esa qulim deb tanishtiradi va shu zahoti yolg'on gapirganligi sabab yorilib o'ladi. Hikoyatda o'z manfaatini ustun qo'yuvchi, yolg'onchi do'stlar qoralanadi. Xuddi mana shunday yolg'on do'stlarning qoralanishini biz Abdulla Avloniyning "Ikkinchi muallim" kitobida ham ko'rishimiz mumkin. "Yalg'on do'st" hikoyatida ikki kishi do'st bo'lib, safarga chiqadilar. Bir tog' ichida ketib borayotganda, uzoqdan bir yo'lbarsni ko'radilar, do'stlardan biri yugurib, darhol daraxtning ustiga chiqib oladi. Ikkinchisi shoshilib qolib, nima qilishini bilmay, erga cho'zilib o'likka o'xshab cho'zilib yotadi. Yo'lbars kelib hidlab-hidlab o'lik deb o'ylab qaytib ketadi. O'rtog'i daraxtdan tushib yo'lbars qulog'iga nima deganini so'raydi. Yo'ldoshi: "Oh, do'stim! Shodlig'ingda o'rtog' bo'lub, g'am vaqtingda tashlab qochadurg'on nomard kishilar ila yo'ldosh bo'lma!"-deb so'zlab ketdi, deb javob beradi. Abdulla Avloniy ham Navoiy kabi yolg'on do'stlardan uzoqroq yurishni, ulardan hech qachon yaxshilik kutib bo'lmasligini ta'kidlab o'tadi.

Har ikki adib ham ilm olish kerakligini, insonni ilm ulug'alshini aytib o'tadi. Navoiy ilm haqida quyidagi fikrlarni aytadi:

Er kishiga zeb-u ziynat hikmat va donishdur.

-deb, Ilmni har bir insonni go'zal qiladigan, unga zeb beradigan vosita sifatida ta'riflaydi. Inson mol-mulki bilan emas, donishi ya'ni ilmi bilan ulug'lanishini aytadi. Xuddi shunday fikrlarni biz Abdulla Avloniyda ham ko'rsak bo'ladi:

Shavkati inson erur ilmu adab,

E'tibor etmas anga molu nasab.

Yuqoridagidan ko'rinib turibdiki, Jadid adabiyoti vakillaridan biri bo'lmish Abdulla Avloniy ham ilm olish uni ulug'lash kerakligini, ilm bilan odob insonning shon-shuhratini oshiruvchi vosita ekanligini, mol-nasab bilan inson shavkatli bo'lmasligini ta'kidlaydi. Bunday so'zlar bilan Navoiy ham, Avloniy ham insonni ilm olishga, odobli bo'lishga undaydi. Xaloyiqni yolg'iz mana shu barcha johillik va qullikdan qutqarishini aytib o'tadi. Abdulla Avloniy yana bir asarda ilmga quyidagi ta'rif beradi:

Emish har elg'a qadri ilm balo,

O'la ilm maqomi baski bolo.

Kishikim ilmu fandin boxabardur,

Haloyiqqa mo'tabardur.

Tiriklikda kishikim qilsa har kor,

Aning osonlig'ina ilm darkor.

Hamma elda, har zamonda ilmning qadri yuqoriligini, ilm va fandan xabardor shaxsni xalq qadrlashini, qaysi ishning mutaxassisi bo'lmasin ilmi inson o'z ishining ustasi bo'lib etishishini ta'kidlaydi. Ilmga Navoiy zamonida ham, Avloniy zamonida ham, hozirda bizning zamonimizda e'tibor berilmoqda. Buning sababi barcha narsalardan yagona najot yo'li –ilm sanaladi. U insonni ulug'lovchi, insonni jamiyatda shaxs sifatida tanituvchi vosita sanaladi. Shuning uchun ham ilm har zamonda, hamma joyda urfdan qolmaydi.

Navoiy “Hayrat-ul abror” dostonining ettinchi maqoloti Qanoat bobiga bag'ishlangan. “Kim uchun qanoat bir fan, odat bo'lib xizmat qilgan ekan, bilingki, boy qilgan ham ana shu qanoat bo'lgan. Oltin-kumushlari turli bezaklarni boylik hisoblamagin, chinakam boylik qanoat ganjidir... Shoh tama' qilsa, jig'ildonga aylansa, qanoatli darvesh podshoh bo'lg'usidir”[5].

Unda Navoiy inson qanoatli bo'lishi kerakligini, qanoatli inson nimagaki erishsa, shundan ham xursand bo'lib, hatto eng boy odam bir nimadan rohatlanamasa ham, qanoatli inson shundan rohatlanib, o'zini shohlarcha his qilishini aytib o'tgan. Xuddi mana shunday qanoat haqidagi xulosalarni biz Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobida ham ko'rishimiz mumkin: “Qanoat bir xazinadirki, naqdinasi kundun-kun ortar. Bu xazinaga ega bo'lgan kishilar umrlarini shavq va rohatda kechirurlar”[6].

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, har ikki ijodkor ham qanoatga bir xil ta'rif bergan. Agar inson qanday sharoitda bo'lishidan qat'iy nazar qanoat bilan yashasa, u haqiqiy boy inson sanaladi. Agar, qanoat qilmay yashasa hatto shoh bo'lsa ham u xotirjam hayot kechirolmay, o'zining nafsiga qul bo'lib yashashini ta'kidlagan. Bunga misol sifatida Navoiy ikki do'stni keltirib, biri qanoat qilgani uchun podshoh bo'lganini, birini esa ta'ma xoksor qilganini keltirib o'tgan. Shunga o'xshash hikoyani Avloniy ijodida ham uchratishimiz mumkin. “Birinchisi muallim” kitobidan “Qanoat” hikoyatida bir kishining Ali va Vali ismli ikki o'g'li bo'lgan ekan. Ali qanoatli, Vali esa qanoatsiz ekan. Bir kuni otasi bolalarini sinash uchun bozordan olma olib kelib, “bolalarim keling, olma beraman”,- debdi. Vali tezlik bilan kelib: “Menga hammasini bering”-debdi, Ali esa “Otajon menga bittasini bersangiz bo'ladi”-debdi. Otasi Alining qanoatiga ofarin qilib, quchog'iga olib, ikkita olma beribdi. Ammo, Valiga qanatsiz bo'lma deb adab beribdi.

Qanoat bilan qorun to'ydurursiz,  
Qanoat bo'lmasa, ko'p och qolursiz.  
Qanoatsiz kishi bag'rini dog'lar,  
Qanoatlik kishi og'zini yog'lar.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul abror” dostonining so'z ta'rifiga bag'ishlangan bobi quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

So'z guharig'a erur oncha sharaf-  
Kim, bo'la o'lmas anga guhar sadaf.

Navoiy so'zni “gavhari noyob” sifatida ta'riflaydi. Unga, hatto, sadaf ham tenglasha olmasligini ta'kidlaydi. Yana bir joyda “Masih” kabi tiriltiruvchi xususiyatga so'z ega ekanligini ta'kidlab, hatto jon taslim qilayotgan insonni yaxshi so'z qutqarib qolishini aytadi. Xuddi mana shu fikrlarni biz Avloniy ijodida ham ko'rishimiz mumkin:

Kim izoh qilibdi husn nimasi:  
Kelishgan ko'krakmi, xushbichim qomat?  
Yo shahlo ko'zlarmi? Lekin goho biz  
Bularning hech birin husn demaymiz.  
So'z bilmas lablarni mumkinmas sevmak:  
Otashsiz nigoh-u, hidsiz bir chechak!

Ajib o'xshashlik. Barkamol inson tushunchasi tamom boshqa muhit va davrda yashagan ikki buyuk shoirda deyarli bir xil talqin qilinyapti. Ikkinchi tomondan esa bunga ajablanmaslik kerak, chunki umuminsoniy g'oyalar davr va muhit bilan cheklanib qolmaydi. Tabiiyki, so'z hali o'zligicha hech narsa anglatmaydi. U muhim va kerakli ma'noni anglatgandagina ma'lum ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir adiblar masalaning bu jihatini hech qachon chetda qoldirmaganlar. So'zning foydali va mazmundor bo'lishi karligini ko'zda tutganlar. Avloniy ham so'zning inson qadr-qimmatini belgilashdagi roliga umuminsoniy qarashlardan kelib chiqib baho berdi. So'zning ma'nosiga alohida diqqat qildi. Til va so'z odobi haqidagi umuminsoniy fikrlarni davom ettirdi: “... so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurg'on tarozudir. Aql sohiblari sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilurlar... Agar so'z aql va hikmatga muvofiq bo'lib, o'ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadurg'on bo'lmasa asalarilar orasida g'o'ng'illab yurgan qovoqari kabi quruq g'o'ng'illamoq, faqat bosh og'rig'idan boshqa bir narsa emasdir. Boshimizga keladurg'on qattiq kulfatlarning ko'pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun “ko'p o'yla, oz so'yla” demishlar”.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jadid adabiyoti namoyandalaridan biri bo'lmish Abdulla Avloniy Navoiy asarlarini puxta o'rgangan, va unga ergashgan. Bu ergashish to'g'ridan-to'g'ri bo'lmasa-da, g'oyaviy ergashish bo'lgan. Avloniy Navoiyni o'zining ma'naviy ustozlari deb bilib, uning an'alarini davom ettirgan. Biz ishimizda uning bir qisminigina misol sifatida keltirdik. Zero, bunday an'ana Avloniy ijodida serob. Avloniy Navoiy vafotidan 375 yil keyin tavallud topgan bo'lsa-da, Navoiy va Avloniy yashagan davr va muhit bir-biridan mutlaq farq qilsa-da, ularning umumiy insoniy qarashlari juda ham mushtarak. Ikki davr vakili ham xalqni avvalo o'qishini, bir-biriga sadoqatli bo'lishi, odob va axloqli bo'lishini orzu qilgan bu borada ham yaxshi, ham yomon obrazlardan misollar keltirib ommaga, insonlarga etkazishga harakat qilishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. -B. 74.

Alisher Navoiy. Sab' ai sayyor. Mukamal asarlar to'plami. 20 jildlik. -T.: Fan, 1992. 10-jild.

Abdulla Avloniy. Toshkent tongi. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979

Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" Toshkent, "Ma'naviyat" 1992-yil.

Adabiyot (Majmua) Akademik litseylarning uchinchi bosqich o'quvchilari uchun. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2010.

S. Hasanov Navoiyning etti tuhfasini. -T.: Adabiyot va san'at, 1991.

M. Muhiddinov Nurli qalblar gulashani. -T.: Fan, 2007.

N. Rasulova Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" dostonida do'st timsolining yaratilishi. *Oriental Renaissance: Innovativa, educational, natural and social sciences*, Volume 1, November 2021.

Xurramov Mansur, Pardayeva Mohinur Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" asarlarida tarbiya masalasi. *International Consortium on Academic, Trends on Education and Science* -2021.

Yo'ldosheva Mohidil Sobirjon qizi "Abdulla Avloniy chin ma'noda muallim". *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS)* -2022